FARG'ONA VILOYATI RISHTON TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 18 - noyabr 411-11-158-Q/22 Rishton tumani hokimligi

Uy va turar joyning inventar yig`ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko`chirmalar va nusxalar berish tartibi to`g`risida

O`zbekiston Respublikasining "Davlat kadastrlari to`g`risida"gi Qonuni, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-yanvardagi 18-son "O`zbekiston Respublikasining uy-joy fondini davlat yo`li bilan hisobga olish to`g`risida"gi qarori, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 02-sentyabrgi 535-son "Kadastr sohasida ayrim davlat xizmatlari ko`rsatishning ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to`g`risida"gi qarori, O`zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida"gi Qonunining 6, 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Uy va turar joyning inventar yig`ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko`chirmalar va nusxalar berish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat kadastrlari palatasi Farg'ona viloyat boshqarmasi Rishton tuman filiali (Dadajonov) ushbu qaror bilan tasdiqlangan "Uy va turar joyning inventar yig`ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko`chirmalar va nusxalar berish tartibi" asosida ish yuritilishini ta'minlasin.

3. Mazkur qaror Rishton haqiqati gazetasida rasman e'lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining o`rinbosari N.Oripov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **С.Солиев**

Rishton tuman hokimining
2022 yil 18 noyabrdagi
411-11-158-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Uy va turar joyning inventar yig`ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko`chirmalar va nusxalar berish tartibi

1.Uy va turar joyning inventar yig`ma jildi uy yoki turar joy foydalanishga qabul qilinib olinayotganda yoxud turar joy uy-joy fondiga kiritilayotganda tuziladi.

Keyingi texnik hisobga olish uylar va turar joylarni vaqti-vaqti bilan rejali xatlashlar o`tkazish yo`li bilan besh yilda kamida bir marta, shuningdek rejadan tashqari tekshirishlar jarayonida hisobga olish ko`rsatkichlari o`zgarishlari aniqlanishiga qarab amalga oshiriladi.

2.Uy va turar joyning inventar yig`ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko`chirmalar va nusxalar mustaqil hujjatlarni tashkil etadi.

3.O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-yanvardagi 18-son Qarori bilan tasdiqlangan “O`zbekiston Respublikasida uy-joy fondini davlat yo`li bilan hisobga olishning yagona tizimi to`g`risida”gi Nizomga asosan (*O`zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to`plami, 2000 y., 1-son, 5-modda; O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2001 y., 3-4-son*) Uy-joy fondi inson yashashi uchun yaroqli bo`lgan turar joydan, shu jumladan, uylar, kvartiralar, xizmat turar joylari, maxsus uylar, (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy- joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg`iz qariyalar, internat - uylar, shuningdek bolalar uylari va va boshqa maxsus maqsadli uylar)dan iborat bo`lgan fond.

4.Uy-joy fondini hisobga olish texnik hujjatlar yig`ma jildi, ro`yxatdan o`tkazish daftarlari, inventar hujjatlar yig`ma jildida shakllangan ro`yxatdan o`tkazilgan hujjatlarning nusxalari, boshqa inventarizatsiya hujjatlari Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali arxivida saqlanadi.

5.Uy va turar joyning inventar yig`ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko`chirmalar va nusxalar berish uchun yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning ishonchli vakillari Davlat kadastrlari palatasi tuman filialiga ariza bilan murojaat qiladi.

6.Arizalar Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali tomonidan qabul qilib olinadi va shu kunning o`zida arizalar reyestriga qayd qilinadi.

7.Yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning ishonchli vakillari uy va turar joyning inventar yig`ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko`chirmalar va nusxalar berish uchun Davlat xizmatlari markaziga o`zi kelib yoki O`zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o`rinlarda — YIDXP) orqali elektron hujjat ko`rinishida ariza berishlari mumkin.

8. Ariza beruvchi Davlat xizmatlari markazlariga kelib murojaat etganda, uning so`rovnomasi Davlat xizmatlari markazi xodimi tomonidan to`ldirilib, ariza beruvchi tomonidan tasdiqlangandan so`ng barcha hujjatlar real vaqt rejimida DK filialiga elektron shaklda yuboriladi. YIDXP orqali murojaat qilinganda esa so`rovnoma avtomatik tarzda DK filialiga yuboriladi.

9.O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 02-sentyabrgi 535-son “Kadastr sohasida ayrim davlat xizmatlari ko`rsatishning ma’muriy reglamentlarini tasdiqlash to`g`risida”gi qaroriga asosan Kadastr (yig`majildi) pasporti yo`qolganda (yaroqsiz holga kelganda), qog`oz yoki plastik shaklda yangi kadastr pasporti ikki ish kuni mobaynida huquq egasiga topshiriladi.

Kadastr yig`majildi (pasporti) yo`qolganda (yaroqsiz holga kelganda va ko`chmas mulk ob’yekti ko`rsatkichlari o`zgartirilmasdan) kadastr pasporti huquq egasiga bepul topshiriladi.